Nusxa № 2

Feld'egerlik xizmati ko'rsatishga

## SHARTNOMA № 32

Buxoro shahri

2022 y. «5» январь

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va rivojlantirish vazirligi Davlat feld'egerlik xizmati to'g'risidagi kommunikatsiyalarini Nizom asosida ish ko'ruvchi keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb ataladigan O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Davlat feld'egerlik xizmati Buxoro shaxar bo'linmasi nomidan xizmat boshlig'i G. M. Djuraev va keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb ataladigan Бухоро в. х б. рахб. Н. Жабборов
Ғ.Р Мошемовнинг берим ... бўлимининг
ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

### 1. Shartnoma mavzusi

1.1. «Buyurtmachi»ning jo'natmalarini O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlarigacha va Toshkent shahri bo'yicha qabul qilish va yetkazib berish hamda bajaruvchining tasdiqlangan jadvali bo'yicha Moskva shahri (Rossiya) orqali MDH mamlakatlari viloyat markazlarigacha yetkazib berilishini ta'minlash shartnoma mavzusi hisoblanadi.

1.2. «Buyurtmachi»ning jo'natmalarni dam olish va bayram kunlaridan tashqari har kuni soat 08-00 dan 18-00 gacha «Buyurtmachi» yoki «Bajaruvchi»ning binosida qabul qilinadi. Jo'natmalarni Buyurtmachining binosida qabul qilish uchun Buyurtmachi bir kun avval quyidagi (65) 223-40-12, telefon raqami orqali berilgan buyurtmasi asosida bajariladi.

1.3. «Buyurtmachi»ning binosida jo'natmalar qabul qilinganligi uchun avtotransport berilganligi uchun to'lov, shuningdek har bir jo'natmadan qo'shimcha yig'im undiriladi. Ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar uchun hisob-kitob amaldagi tarifga muvofiq bajariladi.

### 2. Yetkazib berish shartlari

2.1. «Bajaruvchi» O'zbekiston Respublikasining viloyat markazlarigacha jo'natmalarni «Buyurtmachi» tomonidan ko'rsatilgan manzil bo'yicha qo'ldan qo'lga yetkazib beradi. Agar jo'natmalarni oluvchi viloyat markazidan quyida joylashgan bo'lsa, jo'natmalar maxsus aloqa tarmog'i orqali beriladi.

2.2. Jo'natmalarni yetkazib berish «Bajaruvchi»ning avtotransporti orqali (istisno hollarda «Buyurtmachi»ning avtotransporti orqali), jo'natmalarni oluvchi joylashgan manziliga qarab avia va temir yo'l transporti orqali amalga oshiriladi.

2.3. Zarurat bo'lganda «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» bilan kelishuv bo'yicha jo'natmalarni yo'nalish doirasidan tashqari - feld'egerlar bilan (narochno) yuborishi mumkin. Bunda «Buyurtmachi» amaldagi xarajatlarni tarifga muvofiq to'laydi.

2.4. «Buyurtmachi»ning jo'natmalari bo'lmaganda yoki jo'natmalar tayinlangan muddatda jo'natishga tayyor bo'lmaganda, feld'egerning nazorat varag'iga «jo'natmalar yo'q» degan belgi qo'yiladi va «Buyurtmachi»ning imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi. Ushbu holatda amaldagi tarifga binoan transport xarajatlari uchun haq to'lanadi.

2.5. «Bajaruvchi» jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan jo'natmalarni qabul qilmaydi va yetkazib bermaydi.

### 3. Shartnoma summasi va uni to'lash tartibi

3.1. Shartnomaning umumiy summasi Уч беш минг so'mni tashkil etadi.

3.2. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ning hisob-kitob raqamiga umumiy summaning 30 foizi miqdorida oldindan haq to'laydi. Umumiy summaning qolgan qismi haqiqiy ko'rsatilgan xizmatlar uchun yil davomida to'lanadi. QQS hisoblanmaydi.

3.3. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq amaldagi tarif asosida taqdim etilgan hisob fakturaga asosan